| Жартай Ж.М., Саттыбаева Д.М., Рахимова А.Н., Никкель Л.Д. ....                                                                                          | 565        |
| O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR                                                                           |            |
| Vahangurov O.O. ....                                                                                                                                    | 571        |
| O‘ZBEKISTONNING YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH YO‘LLARI VA USTUVORLIKLARI                                                                                  |            |
| Luqmanov B.M. ....                                                                                                                                      | 577        |
| KAPITAL TANQISLIGI SHAROITIDA MOLIVAVIY RESURLARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH                                                                              |            |
| Arziyev S. ....                                                                                                                                         | 585        |
| <b>V SHO‘BA. ESG STANDARTLARIGA MOS KELADIGAN INVESTITSIYA LOYIHALARINI QO‘LLAB-QUVVATLASH, DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK VA XALQARO MOLIVA INSTITUTLARI</b> | <b>590</b> |
| SANOAT KLASTERLARI – SANOAT SALOHİYATINI OSHIRISHNING STRATEGİK YO‘NALISHI SIFATIDA                                                                     |            |
| Sobirov A.A. ....                                                                                                                                       | 590        |
| АНАЛИЗ ВА СИНТЕЗ МЕТОДЛАРИНИНГ ЭВОЛЮЦИЯСИ                                                                                                               |            |
| Дусмуратов Р.Д., Носирова Н.Ж. ....                                                                                                                     | 597        |
| ESG-ФАКТОРЫ В ПРИНЯТИИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ: ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ                                                                                       |            |
| Ким Л.Н., Елтаев Н.К. ....                                                                                                                              | 606        |
| КЛЮЧЕВЫЕ АСПЕКТЫ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОДДЕРЖКИ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭКОНОМИКИ НА ПРИМЕРЕ НИЖЕГОРОДСКОЙ ОБЛАСТИ                                                           |            |
| Ремизова И.В. ....                                                                                                                                      | 614        |
| TIJORAT BANKLARIDA DAVLAT MAQSADLI DASTURLARINI MOLIVALASHNING ILG‘OR XORIY TAJRIBALARI                                                                 |            |
| Shodiyev Sh.S. ....                                                                                                                                     | 620        |
| ВЛИЯНИЕ ЗЕЛЁНЫХ ИНВЕСТИЦИЙ НА ИНВЕСТИЦИОННУЮ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТЬ АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВ                                                                      |            |
| Усманова Ю. ....                                                                                                                                        | 623        |
| YASHIL ENERGETIKA SOHASIDA INVESTITSIYALARNING ROLI                                                                                                     |            |
| Primov S.F. ....                                                                                                                                        | 632        |
| ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ РЕСУРСОВ В РАМКАХ ЗЕЛЕННЫХ РАБОЧИХ МЕСТ                                                              |            |
| Хувайдуллаева И.Х. ....                                                                                                                                 | 638        |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INVESTITSIYALARNI JALB QILISH                                                                                            |            |
| Primov S.F. ....                                                                                                                                        | 642        |
| ТИЖОРAT БАНКЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИДА УЧРАЙДИГАН РИСКЛАР ВА УЛАРИНИ БАРТАРАФ ЭТИШ ЙЎЛЛАРИ                                                                     |            |
| Хусанбоев А.Ғ. ....                                                                                                                                     | 647        |
| ВЛИЯНИЕ ПРИНЦИПОВ ESG НА РЕЗУЛЬТАТЫ ПЕРВИЧНОГО ПУБЛИЧНОГО РАЗМЕЩЕНИЯ АКЦИЙ: КОМПЛЕКСНЫЙ АНАЛИЗ                                                          |            |
| Сайдуллаев Ш. ....                                                                                                                                      | 653        |
| РАНВАР КАДРЛАРИНИНГ БОШҚАРУВ КОМПЕТЕНСИЯЛАРИНИ РИВОJЛАНТИРИШДА RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI                                                         |            |
| Olimov S.A. ....                                                                                                                                        | 660        |
| MILLIY IQTISODIYOTDA KICHİK TADBIRKORLIKNING O‘RNI VA AHAMIYATI                                                                                         |            |
| Kurbanova Sh.Y., Yusupov A.A. ....                                                                                                                      | 667        |
| ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ТРАНСФОРМАЦИЮ БИЗНЕС-МОДЕЛЕЙ И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ                                                                  |            |

|                                                                                                                                                           |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Koptaeva G.II., Bekebaeva M.O. ....                                                                                                                       | 672 |
| HUDUDLAR TASHQI IQTISODIY STRATEGIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI                                                                 |     |
| Toshboyev M.M. ....                                                                                                                                       | 680 |
| QISHLOQ XO‘JALIGIDA KLASSTERLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA‘MINLASHDA DAVLAT SUBSIDİYALARINING AHAMIYATI                                             |     |
| Yuldasheva D.K. ....                                                                                                                                      | 689 |
| O‘ZBEKISTONDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY-IJTIMOIIY AHAMIYATI                                                                |     |
| Mamatov M.N. ....                                                                                                                                         | 699 |
| RAQAMLI-ELEKTRON PULLAR VA KRIPTOVALYUTALAR FARQLARI                                                                                                      |     |
| Matchanov T.M., Matchanova M.I. ....                                                                                                                      | 703 |
| AXBOROT TIZIMLARI XUSUSIYATLARI                                                                                                                           |     |
| Norinov M.U., Abdulxamid A.I., Oripov O.I., Madaminov F.R. ....                                                                                           | 709 |
| CHIQUINDILARNI QAYTA ISHLASH SANOATI VA ATROF-MUHITGA SALBIY TA‘SIRINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI                                                               |     |
| Tursunqulov Sh.R. ....                                                                                                                                    | 715 |
| O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA ISHLAB CHIQUARISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH VA IQLIM O‘ZGARISHI OQIBATLARIGA MOSLASHISH MEXANIZMLARI |     |
| Abduraxmanova Z.T., Rustamova M.M. ....                                                                                                                   | 722 |
| RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI SANOATDA EKOLOGIK SAMARADORLIKNI OSHIRISH                                                                                   |     |
| Hasanov H.X. ....                                                                                                                                         | 727 |
| SHADOW ECONOMY EXPOSED: THE HIDDEN FORCES SHAPING ECONOMY.                                                                                                |     |
| Arziev Sh.R. ....                                                                                                                                         | 735 |
| TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI                                                                       |     |
| Axmedova D.B. ....                                                                                                                                        | 741 |

- Фокус на новых источниках дохода. Разрабатывать платформенные и сервисно-ориентированные модели, создавать цифровые продукты и услуги на базе ИИ.

- Инвестиции в аналитику и кибербезопасность. Повышение качества данных и их защиты критично для эффективной работы ИИ-систем.

Реализация этих предложений позволит странам Центральной Азии ускорить цифровую трансформацию экономики, повысить глобальную конкурентоспособность и создать условия для устойчивого экономического роста. Компании получают возможность улучшить производительность, сократить издержки, выйти на новые рынки и сформировать инновационные экосистемы, отвечающие вызовам XXI века.

### Список использованной литературы

1. Бакулин, С.В. Искусственный интеллект и цифровая экономика: вызовы и возможности для бизнеса : монография. – М.: Инфра-М, 2022. – 312 с.

2. Ковальчук, А.А., Руденко, И.Д. Трансформация бизнес-моделей в условиях цифровизации и внедрения ИИ // Экономика и управление. – 2023. – № 4. – С. 15–27.

3. PwC. Sizing the prize: What's the real value of AI for your business and how can you capitalise? – London : PwC Research, 2018. – 44 p.

4. McKinsey & Company. The State of AI in 2023: Generative AI's Breakout Year. – New York : McKinsey Global Institute, 2023. – 56 p.

## HUDUDLAR TASHQI IQTISODIY STRATEGIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

**Toshboyev Muzaffar Muhtorovich**

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti

“Iqtisodiyot” kafedrasida katta o‘qituvchisi

**E-mail:** [muz72@mail.ru](mailto:muz72@mail.ru)

**Orcid:** 0009-0005-4974-9498

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada jahon bozorlarida yuzaga kelayotgan noaniqlik va iqtisodiy beqarorlik sharoitida hududlarning tashqi iqtisodiy strategiyalarini shakllantirish masalalari xorijiy davlatlar tajribasi asosida o‘rganilgan. Rivojlangan mamlakatlarning tashqi iqtisodiy siyosati, eksportni diversifikatsiya qilish, innovatsion yondashuvlar va hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha amaliy choralar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston hududlari uchun samarali tashqi iqtisodiy strategiyalarni ishlab chiqishda amaliy ahamiyat kasb etadi.*

***Kalit so‘zlar:** jahon bozori, noaniqlik, tashqi iqtisodiy strategiya, xorijiy tajriba, hududiy rivojlanish, eksport siyosati.*

**Аннотация.** В статье рассматривается опыт зарубежных стран по формированию внешнеэкономических стратегий регионов в условиях неопределенности и нестабильности мировых рынков. Анализируются внешнеэкономическая политика развитых государств, меры по диверсификации экспорта, внедрению инновационных подходов и обеспечению региональной экономической устойчивости. Полученные результаты могут быть использованы при разработке эффективных внешнеэкономических стратегий для регионов Узбекистана.

**Ключевые слова:** мировой рынок, неопределенность, внешнеэкономическая стратегия, зарубежный опыт, региональное развитие, экспортная политика.

**Annotation.** This article examines the experience of foreign countries in shaping regional foreign economic strategies under the conditions of global market uncertainty and instability. It analyzes the foreign economic policies of developed nations, measures for export diversification, innovative approaches, and ensuring regional economic resilience. The findings can be applied in developing effective foreign economic strategies for the regions of Uzbekistan.

**Keywords:** global market, uncertainty, foreign economic strategy, foreign experience, regional development, export policy.

## Kirish

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, tashqi iqtisodiy strategiyalarida boshlang'ich nuqta sifatida erkin savdo tamoyili qabul qilinadi. Bu tamoyil dunyo xo'jaligining chuqurlashgan differentsiallasuvi va milliy iqtisodiyotlarning rivojlanish darajalari orasidagi tafovut kuchaygani sharoitida sanoatlashgan mamlakatlarga qo'shimcha ustunliklarni taqdim etib, ularning iqtisodiy pozitsiyalarini mustahkamlaydi. Boshqa tomondan, tarixiy sabablarga ko'ra dunyo xo'jalik aloqalariga kechroq qo'shilgan davlatlarda vaziyat butkul boshqacha yuzaga kelgan, bu esa ularning qaram pozitsiyasini belgilagan. Ushbu mamlakatlarning tashqi iqtisodiy strategiyalarini ishlab chiqishda proteksionizm va iqtisodiy egoizm tamoyillari asosiy o'rin tutgan. Biroq, jahon bozoridagi raqobat keskinlashgani, ayniqsa moliyaviy-iqtisodiy inqiroz, COVID-19 pandemiyasi, siyosiy beqarorlik kabi noaniqlik sharoitida ko'plab rivojlangan iqtisodiy mamlakatlar o'z tashqi iqtisodiy strategiyalarida ayrim proteksionistik elementlardan foydalanishga majbur bo'lishdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-martdagi "Tashqi savdo va mintaqaviy sanoatni rivojlantirishda tadbirkorlik assotsiatsiyalarining rolini yanada oshirish choralari to'g'risida"gi PQ-126-son Qarorida eksportga yo'naltirilgan institutar rolini oshirishga alohida e'tibor berilgan<sup>196</sup>. Qaror mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish va hududlar iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishga yangi turtki berdi. Ushbu hujjat orqali tadbirkorlik assotsiatsiyalarining tashqi savdo jarayonlaridagi ishtirokini kuchaytirish, ularni mintaqaviy sanoatni modernizatsiya qilish va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishda faol qo'llab-quvvatlash maqsad qilingan. Qaror,

---

<sup>196</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tashqi savdo va mintaqaviy sanoatni rivojlantirishda tadbirkorlik assotsiatsiyalarining rolini yanada oshirish choralari to'g'risida"gi Qarori 2024-yil 14-mart, № PQ-126-son. Elektron manba: <https://lex.uz/ru/docs/6838940>

shuningdek, hududlararo hamkorlikni mustahkamlash va tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida samarali integratsiyani ta'minlash orqali raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi, bu esa O'zbekistonning global bozorlaridagi pozitsiyasini yanada mustahkamlaydi.

Mamlakatning tashqi iqtisodiy strategiyasining asosiy tamoyillarini tanlash uning iqtisodiy va tabiiy salohiyatiga bog'liq bo'ladi. Agar mamlakat xalqaro mehnat taqsimoti tizimiga nisbatan og'riqsiz integratsiyalashishni maqsad qilsa, asosiy e'tibor "erkin savdo" prinsiplariga qaratiladi. Aks holda, mamlakat o'z iqtisodiyotini tashqi ta'sirlardan himoya qilishga intilib, proteksionizm elementlariga amal qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ko'plab rivojlangan davlatlar tashqi iqtisodiy strategiyalarini amalga oshirayotganda "erkin savdo" tamoyillarini targ'ib qilish bo'yicha faol harakat qilayotganiga qaramay, so'nggi o'n yilliklarda ularning yangi vositalar orqali tashqi iqtisodiy sohadagi ta'siri sezilarli darajada oshdi. Obyektiv haqiqat shuni talab qiladiki, har bir davlatning ichki iqtisodiy siyosati oqibatlari boshqa mamlakatlar iqtisodiyotlariga ta'sir qilishi mumkinligini hisobga olish lozim. Milliy iqtisodiyotlarning o'zaro bog'liqligini anglash va uning davlat tashqi iqtisodiy siyosatiga ta'siri haqida ilgari qayd etilgan edi, bu esa dunyodagi yetakchi davlatlarning muvofiqlashtirilgan tashqi iqtisodiy siyosatini shakllantirishga sabab bo'lishi kerak edi. Va aynan shunday tendensiya o'tgan asrning ikkinchi yarmida yuzaga kelib, hozirgi kunda ham faoliyatini davom ettirmoqda, buni yetakchi integratsion birlashmalar muvaffaqiyatli ishlashi yaqqol tasdiqlaydi.

Davlatlarning tashqi iqtisodiy siyosatidagi shakllar va usullar xilma-xilligi quyidagi omillar bilan izohlanadi, deb hisoblaymiz. Birinchidan, bugungi sharoitda mamlakatlarning jahon iqtisodiyotidagi o'zni ko'rsatkichlarini belgilashga yondashuvlar o'zgardi. Uzoq vaqt davomida xalqaro mehnat taqsimoti tizimidagi yetakchi mavqe mamlakat milliy iqtisodiyotining to'g'ri tanlangan ixtisoslashuvi orqali ta'minlanishi mumkin, deb hisoblangan. Asosiy e'tibor mamlakatga ma'lum tovar yoki xizmatni nisbatan past ishlab chiqarish xarajatlari bilan ta'minlaydigan taqqoslanadigan ustunliklarni aniqlash va saqlashga qaratilgan edi.

Globallashuv sharoitida, ilm-fan va texnikaning yutuqlari keng ko'lamda ishlab chiqarishga joriy etilishi natijasida, narx omili milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini belgilovchi yagona mezon emas. Shunday ekan, o'zgargan sharoitda tashqi iqtisodiy strategiyani takomillashtirishda davlatlar ijtimoiy-madaniy, boshqaruv-ma'muriy va boshqa omillarga ko'proq e'tibor qaratishga majbur bo'ldilar. Faqat ma'lum davlatlarga xos, boshqa davlatlarga xos bo'lmagan omillarni hisobga olish zaruriyati dunyo amaliyoti tomonidan iqtisodiy rivojlanish modellari bir mamlakatdan boshqasiga avtomatik ko'chirilishining samarador

emasligini aniq ko'rsatdi. Bugungi sharoitda na tabiiy, na mehnat resurslari tashqi iqtisodiy siyosatni belgilashda yagona asos bo'la olmadi.

Yaponiya va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarining muvaffaqiyati shuni isbotlaydiki, mamlakat muhim tabiiy resurslarga ega bo'lmasdan ham jahon iqtisodiyotida munosib o'rin egallashi mumkin. Millatning mehnat resurslari bilan ta'minlanishi, xalqaro mehnat tizimidagi o'rnini aniqlovchi omil sifatida ko'rib chiqilganda, bugungi sharoitda tashqi iqtisodiy strategiyaning shakllanishi oddiy mehnat resurslari emas, balki innovatsiyalarga moyil malakali kadrlar mavjudligiga bog'liqdir. Haqiqatdan ham, ilm-fan va texnologik taraqqiyot boshqarayotgan jahon iqtisodiyotida mamlakatga munosib o'rin ta'minlashga qaratilgan tashqi iqtisodiy strategiyaning o'z ishchan kuchining past sifatida muvaffaqiyatli bo'lishi qiyin.

G'arbiy Yevropa mamlakatlari tajribasini ko'rib chiqishda Germaniya va Fransiya e'tibor qaratamiz. Birinchisi, chuqur ijtimoiy o'zgarishlarni boshidan kechirgan mamlakat sifatida qiziqarli bo'lsa, ikkinchisi esa davlat tartibga soluvi an'analariga ega bo'lib, yuqori rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega davlat sifatida ajralib turadi<sup>197</sup>. Germaniya Federativ Respublikasi (GFR) tashqi iqtisodiy siyosati milliy sanoatning an'anaviy kuchli sohalarida xalqaro mehnat taqsimotida o'z o'rnini mustahkamlashga qaratilgan edi. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi boshqa rivojlangan davlatlarga nisbatan kamroq bo'lib, shaxsiy mas'uliyat va qat'iyatga asoslangan xususiy sektorning o'zini o'zi boshqarish mexanizmi yuqori darajada ishlagan. Bu esa chet el investitsiyalarining nisbatan pastligi va milliy iqtisodiyotning tashqi moliyaviy resurslarga kam bog'liqligini ko'rsatadi.

Germaniya iqtisodiyoti jahon iqtisodiyotiga yuqori darajada integratsiyalashgan bo'lib, eksport hajmi bo'yicha Yevropada birinchi o'rinni egallaydi. Import ko'rsatkichlari ham shunga yaqin darajada. GFRning tashqi iqtisodiy siyosati mamlakatni xalqaro mehnat taqsimotida yuqori sifatli, tor ixtisoslashgan mashinasozlik, kimyo va boshqa sanoat tarmoqlari mahsulotlari ishlab chiqaruvchisi sifatida saqlab qolishga qaratilgan.

Fransiya boshqa rivojlangan davlatlarga nisbatan eng uzoq vaqt davomida davlat siyosati orqali shakllangan iqtisodiy tarkiblarni va mavjud ijtimoiy ta'minot tizimini saqlab qolishga harakat qildi. Uning tashqi iqtisodiy tartibga solishi asosan import hajmini qisqartirishga yo'naltirilgan edi. XX asr oxirlarida esa tashqi iqtisodiy siyosat natijalarining sarflangan resurslarga mos kelmasligi aniq ko'zga tashlandi. Fransiya tajribasi, xususan, uning tashqi iqtisodiy siyosatida qo'llagan yondoshuvi O'zbekiston Respublikasi uchun ham muhim dars bo'lib, tarkibiy islohotlar davomida istiqbolli sohalarning rivojlanishi boshqa sohalar hisobiga amalga oshirilmasligi kerakligini tasdiqlaydi.

---

<sup>197</sup> Контуры инновационного развития мировой экономики. / Под ред. А. Дынкина. – М.: Наука, 2020. – 143 с.

Yaponiyaning zamonaviy iqtisodiyotini shakllantirishda davlatning roli har bir davrning o'ziga xos vazifalariga muvofiq o'zgardi. Milliy proteksionizmning dastlabki bosqichlarida davlat ichki bozorni shakllantirishda asosiy rol o'ynadi. Tadbirkorlar tashqi raqobatchilardan ishonchli himoya qilinardi, ammo ichki raqobat rag'batlantirilar edi. Aynan davlat ilg'or texnologiyalarni olib kelish, tanlash va uzatishni ta'minladi. Yapon kompaniyalari o'z mavqeini mustahkamlash bilan birga mustaqil faoliyat doirasini kengaytirdilar. Endilikda davlatning sa'y-harakatlari yangi sohalarni rivojlantirish va modernizatsiya yoki qayta tashkil etishga muhtoj korxonalarga yordam ko'rsatishga qaratilgan.

Har bir yangi reja qabul qilinganda uning mintaqaviy jihati kuchayib, milliy iqtisodiyotni nomarkazlashtirish masalasida davlatning ishtirok doirasi kengayib bordi. Masalan, "Sanoatni joylashtirish rejasi" Tokio-Yokohama, Nagoya-Iokkaichi, Osaka-Kobe va Kitakyushu aglomeratsiyalarida sanoatning keyingi konsentratsiyasini cheklashni, shuningdek, Hokkaydo, Tohoku va Chubu kabi sanoat rivojlanmagan mintaqalarda yangi sanoat tugunlarini yaratishni nazarda tutgan. Yaponiya mintaqaviy siyosatining asosiy o'ziga xosliklari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mintaqaviy rivojlanish va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish masalalarida aniq qonuniy asos mavjudligi (barcha qonun hujjatlari Yaponiya parlamentining sessiyasida qabul qilinadi). G'arbiy mamlakatlarda bunday keng qamrovli va mintaqaviy rejalashtirishning deyarli barcha jihatlarini qamrab olgan qonunlar majmui mavjud emas. Ba'zilar doimiy ravishda takomillashtiriladi, batafsil bayon etiladi yoki yangilari bilan almashtiriladi;

- G'arbiy Yevropa, AQSh va Kanadada keng tarqalgan xususiy investitsiyalarni subsidiyalash tizimining deyarli mavjud emasligi;

- Yaponiya sanoatlashtirishining strategik yo'nalishlaridan biri sifatida eksport hajmini oshirishga bog'liq infratuzilmani rivojlantirishga ustuvor e'tibor qaratilishi;

- milliy miqyosda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish rejalari va shuningdek, "keng qamrovli hududiy rivojlanish rejalari"ni ishlab chiqilishi.

XX asrning ikkinchi yarmida Xitoy siyosati alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu siyosat dunyo iqtisodiy hamjamiyatiga ochiqlik sharoitida milliy ustuvorliklarni hisobga olib, ma'lum darajada mustaqillikni ta'minlaydi. Boshqacha aytganda, "...ochiqlik siyosati iqtisodiyotning o'z kuchlariga tayangan holda ochiqlik siyosatini olib borishni anglatadi, o'z kuchlariga tayanganlik esa iqtisodiyotning ochiqligi sharoitida amalga oshiriladi"<sup>198</sup>.

Xitoyning tashqi iqtisodiy siyosatining o'ziga xos jihatlaridan biri davlatning hal qiluvchi roli bo'lib, aynan davlat mamlakatning tashqi iqtisodiy ochiqlik

---

<sup>198</sup> Потапов М.А. Внешнеэкономическая модель развития стран Восточной Азии. – М.: Международные отношения, 2004. – С. 36.

konsepsiyasini shakllantirgan. XX asr oxirida Xitoy iqtisodiyotining ochiqlik modeli import o'rnini bosish va eksportga yo'naltirilgan strategiyani uyg'unlashtirish, tashqi bozorlarning diversifikatsiyasi, tayyor sanoat mahsulotlari eksportini kengaytirish, mehnat talab qiluvchi ishlab chiqarishdan kapital va ilmiy-texnik talab qiluvchi ishlab chiqarishga asta-sekin o'tishni nazarda tutgan.

Tashqi iqtisodiy siyosat amalga oshirilishi jarayonida Xitoy rahbariyati uning tarkibiy qismlariga bo'lgan yondashuvlari o'zgardi. Eksport milliy iqtisodiyotni rivojlantirish manbai sifatida ko'rib chiqila boshlandi. Biroq tashqi yo'nalish, ya'ni import va eksport operatsiyalarini amalga oshirish faqat chet ellik kapitalga ega ayrim kompaniyalar uchun xos bo'lsa, janubiy hududlardagi maxsus iqtisodiy zonalarda joylashgan korxonalar faqat eksportga yo'naltirilgan faoliyat yuritadi.

Xitoyda yuqori texnologiyali sohalarni rivojlantirish uchun maxsus rivojlanish zonolari tashkil etildi. Ushbu zonalarda Fan va Texnologiyalar vazirligi hamda hududiy hokimiyatlar birgalikda klasterlar yaratish va rivojlantirish bilan shug'ullanadi. 2002- yilga kelib, Xitoyda 53 ta maxsus zona mavjud bo'lib, u yerda 28,388 ta firma faoliyat yuritadi, 3,49 million xodim ishlaydi va savdo hajmi 1 trillion yuanga teng. Klasterlarni yaratish va rivojlantirish jarayonida uch darajadagi hukumat organlari - markaziy hukumat, munitsipalitetlar va rivojlangan zonalar hokimiyatlari faol ishtirok etadi. Markaziy hukumatning roziligi bilan munitsipalitetlar hududida yuqori texnologiyali sanoat zonalarini tashkil qilishi mumkin. Shuningdek, markaziy hukumat maxsus imtiyozlarga loyiq firmalarni tanlaydi.

Quyidagi jadvalda turli mamlakatlarning tashqi iqtisodiy strategiyalari, ularning xususiyatlari va olingan natijalar qisqacha ko'rsatilgan (1-jadval).

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy rivojlanishni tartibga solishning samarali institutsional mexanizmlari quyidagilar hisoblanadi:

- mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish. Ushbu dasturlar mintaqalarning dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilishga qaratilgan bo'lib, masalan, Tennessi vodiysi rivojini boshqarish (AQSh), Rur mintaqasi (Germaniya), "Sibir" rivojlantirish dasturi (Rossiya) va boshqalar<sup>199</sup>;

- maxsus iqtisodiy zonalar. Mintaqani uning tabiiy-iqtisodiy salohiyati va raqobatbardosh ustunliklarini samarali foydalanish asosida tezkor rivojlantirish uchun maxsus rejimlarni yaratish. Bunga quyidagilar kiradi: erkin iqtisodiy zonalar, masalan, Shenchjen, Chjuhay (Xitoy), Kaliningrad (Rossiya), "Navoiy" EIZ (O'zbekiston) va boshqalar; tadbirkorlik zonolari, masalan, AQShda 1500 dan ortiq, Buyuk Britaniyada 27 dan ortiq zona mavjud; ofshor zonolari (Kipr, Kayman orollari va boshqalar); texnologiyalarni joriy etish zonolari, masalan, "Silikon

---

<sup>199</sup> Гранберг А.Г. Основы региональной экономики. М.: ГУВШЭ, 2004. - 380 с.



vodiysi” (AQSh), Banglor (Hindiston), texnopolis “Tsukuba” (Yaponiya) va boshqalar;

**1-jadval**

**Xalqaro bozorlarda tashqi iqtisodiy strategiyalarni shakllantirishning mamlakatlar tajribasi<sup>200</sup>**

| <b>Mamlakat</b>  | <b>Asosiy strategiya</b>                                                | <b>Xususiyatlari</b>                                                                                                                                                                                                                    | <b>Natijalar</b>                                                                                                                                                                                                     |
|------------------|-------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Germaniya</b> | Eksportga yo‘naltirilgan yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish | <ul style="list-style-type: none"> <li>- Mashinasozlik, kimyo sanoati kabi tor ixtisoslashuv.</li> <li>- Kam davlat aralashuvi, kuchli xususiy sektor.</li> <li>- Yuqori sifatli mahsulotlar eksporti.</li> </ul>                       | <ul style="list-style-type: none"> <li>- Yevropada eksport bo‘yicha yetakchi.</li> <li>- Raqobatbardoshlik uchun sifat va innovatsiyalarga e‘tibor.</li> <li>- Chet el investitsiyalariga kam bog‘liqlik.</li> </ul> |
| <b>Fransiya</b>  | Proteksionizm va eksportni rag‘batlantirish                             | <ul style="list-style-type: none"> <li>- Davlat qo‘llab-quvvatlagan istiqbolli sohalar (atom reaktorlari, aerokosmik dasturlar).</li> <li>- Importni cheklash.</li> <li>- Ijtimoiy yo‘naltirilgan iqtisodiy model.</li> </ul>           | <ul style="list-style-type: none"> <li>- Ba’zi sohalarda muvaffaqiyat (masalan, atom energiyasi).</li> <li>- Tarkibiy islohotlarda muvozanat zarurligi ko‘rsatildi.</li> </ul>                                       |
| <b>Yaponiya</b>  | Bosqichma-bosqich modernizatsiya va innovatsiyalar                      | <ul style="list-style-type: none"> <li>- Dastlab arzon mahsulotlar, keyin sifat va energiya tejash.</li> <li>- Davlat va xususiy sektor hamkorligi.</li> <li>- Mintaqaviy rivojlanish rejalari (masalan, “Torch Programma”).</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>- Texnologik yetakchilik.</li> <li>- Klasterlar va maxsus iqtisodiy zonalar samaradorligi.</li> <li>- Innovatsiyalar uchun kadrlar tayyorlash ahamiyati.</li> </ul>           |
| <b>Xitoy</b>     | “O‘lchovli ochiqlik” va davlat boshqaruvidagi eksport strategiyasi      | <ul style="list-style-type: none"> <li>- Maxsus iqtisodiy zonalar (Shenjen).</li> <li>- Yuqori texnologiyali sohalarga investitsiyalar.</li> <li>- Eksportni diversifikatsiya qilish.</li> </ul>                                        | <ul style="list-style-type: none"> <li>- Jahon savdosida tez o‘lish.</li> <li>- Texnologik klasterlar yordamida raqobatbardoshlik.</li> <li>- Davlatning faol roli samarador.</li> </ul>                             |
| <b>AQSh</b>      | Innovatsion klasterlar va erkin bozor mexanizmlari                      | <ul style="list-style-type: none"> <li>- “Silikon vodiysi” kabi texnologik markazlar.</li> <li>- Tadbirkorlik zonalar (1500+).</li> <li>- Davlat loyihalari (masalan, Tennessi vodiysi rivoji).</li> </ul>                              | <ul style="list-style-type: none"> <li>- Innovatsiyalar va startaplar uchun qulay muhit.</li> <li>- Mintaqaviy dasturlar orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot.</li> </ul>                                            |

– mintaqaviy rivojlanishda klaster mexanizmi. Masalan, Germaniyada 1995-yildan beri Bio Regio biotexnologik klasterlarini yaratish dasturi faoliyat yuritmoqda. Buyuk Britaniyada hukumat Edinburg, Oksford va Janubi-Sharqiy Angliya atrofidagi hududlarni biotexnologik kompaniyalar asosiy joylashuvi sifatida belgilagan. Norvegiyada hukumat “dengiz xo‘jaligi” klasteridagi firmalar

<sup>200</sup> Muallif tomonidan shakllantirilgan

o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantiradi. Finlyandiyada 1995-yilda Advantage Finland - The Future of Finnish Industries nomli keng ko'lamli tadqiqot boshlandi, unda rivojlanish tendensiyalari aniqlanib, potentsial klasterlarning raqobatbardoshligi baholandi. Finlyandiya iqtisodiy tadqiqot instituti (ETLA) to'qqizta asosiy klasterni aniqladi: axborot-telekommunikatsiya, metallurgiya, energetika, biznes-xizmatlar, sog'liqni saqlash, mashinasozlik, oziq-ovqat va qurilish<sup>201</sup>. Ushbu klasterlardagi kompaniyalar o'rtasidagi yaqin hamkorlik va bilim almashinuvi ularga asosiy raqobatchilarga nisbatan raqobatbardosh ustunliklar yaratdi (masalan, Finlyandiya ilmiy-tadqiqot va texnologik hamkorlik bo'yicha yetakchi o'rinni egallaydi);

– eksport qiluvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash institutlarini shakllantirish. Bu kichik biznes vakillariga xalqaro bozorlarida kirish va faoliyat yuritish uchun qulay sharoitlar yaratishga xizmat qiladi, masalan, Eksportchilar assotsiatsiyalari (Malayziya, Tailand va boshqalar), tashqi savdo birlashmalari (Turkiya), maxsus tashqi savdo kompaniyasi "Uzagrostar xolding" (O'zbekiston) va boshqa tashkilotlar.

### **Xulosa va takliflar**

Yoqoridagilarni tahlil qilgan xolda quyidagi takliflarni ilgari surishimiz mumkin:

a) **hududiy tashqi iqtisodiy siyosatni differensiallashtirish** – har bir viloyatning sanoat, resurs va transport salohiyatiga mos alohida tashqi iqtisodiy strategiyalar ishlab chiqilishi lozim;

b) **eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarni aniqlash** – xorijiy tajribada bo'lgani kabi, hududlarning raqobat ustunligiga ega tarmoqlarini aniqlab, ularni davlat tomonidan maqsadli qo'llab-quvvatlash zarur;

c) **hududlararo va xalqaro klaster tizimini rivojlantirish** – Janubiy Koreya, Germaniya yoki Xitoy tajribasidan kelib chiqib, eksportga xizmat qiluvchi ishlab chiqarish klasterlari tashkil etilishi kerak;

d) **investitsion infratuzilmani takomillashtirish** – xorijiy investorlar uchun "bir darcha" tamoyili asosidagi xizmat ko'rsatish markazlarini hududlarda yo'lga qo'yish muhim;

e) **transport-logistika markazlarini yaratish** – xalqaro tajribadan foydalangan holda, har bir iqtisodiy mintaqada eksport-importni yengillashtiruvchi logistika uzellarini shakllantirish lozim;

f) **kichik va o'rta biznesning eksportga chiqishini qo'llab-quvvatlash** – xorijiy mamlakatlardagi eksport kredit agentliklari va kafolat fondlari tizimidan o'rnak olib, mahalliy korxonalar uchun moliyaviy mexanizmlar yaratish kerak;

---

<sup>201</sup> Дырдонова А.Н. Методические подходы к выявлению и оценке кластеров в экономике региона. М.: Региональная экономика: теория и практика. № 28(163), 2020, с. 26.

g) **hududiy marketing strategiyalarini ishlab chiqish** – har bir viloyat o‘zining “iqtisodiy brendi”ni yaratib, xorijiy bozorlarda hududiy imijni mustahkamlashi zarur;

h) **ilmiy-tahliliy markazlar faoliyatini kuchaytirish** – xorijiy davlatlar amaliyotida bo‘lgani kabi, tashqi iqtisodiy strategiyalarni shakllantirishda ilmiy asoslangan prognozlar va tahlillar tayyorlanishi kerak;

i) **kadrlar salohiyatini oshirish** – xalqaro iqtisodiy munosabatlar, eksport boshqaruvi, logistika va marketing sohalarida mutaxassislar tayyorlash tizimini kuchaytirish zarur;

j) **raqamli iqtisodiyotni integratsiya qilish** – xorijiy davlatlar tajribasiga asoslanib, hududlarda eksport va investitsiyalarni boshqarish uchun raqamli platformalar (data-portal, e-eksport tizimi) joriy etilishi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi to‘g‘risida (2022-2026-yillar)”gi Farmoni 2022-yil 28-yanvar, № PF-60-son. Elektron manba: <https://lex.uz/ru/docs/5841077>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” Strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni 2023-yil 11-sentyabr, № PF-158-son. Elektron manba: <https://lex.uz/ru/docs/6600404>

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tashqi savdo va mintaqaviy sanoatni rivojlantirishda tadbirkorlik assotsiatsiyalarining rolini yanada oshirish choralari to‘g‘risida”gi Qarori 2024-yil 14-mart, № PQ-126-son. Elektron manba: <https://lex.uz/ru/docs/6838940>

4. O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri), 2000-yil 26-may, № 77-II-son.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Eksport nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2004-yil 26-avgust, № 658-II-son.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Eksportga ko‘maklashish va uni rag‘batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2018-yil 20-dekabr, № PQ-4069-son.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug‘urta himoyasi mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2019-yil 24-may, № PQ-4337-son.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Eksportni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarining Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni, 2024-yil 27-dekabr, № PF-228-son.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ishlab chiqarish, eksport va tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish, savdo va sanoat siyosati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2025-yil 18-aprel, № PF-67-son.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahsulotlarni eksport qilish tartib-taomillarini takomillashtirish va qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2025-yil 14-mart, № PF-47-son.

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Eksport-import operatsiyalari monitoringini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2003-yil 30-sentabr, № 416-son.

12. Aditya A., Acharyya R. Export diversification, composition, and economic growth: Evidence from cross-country analysis //The Journal of International Trade & Economic Development. – 2013. – T. 22. – №. 7. – C. 975-976.

13. Beverelli C., Neumueller S., Teh R. Export diversification effects of the WTO trade facilitation agreement //World Development. – 2015. – T. 76. – C. 293-310.

## **QISHLOQ XO‘JALIGIDA KLASSTERLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA‘MINLASHDA DAVLAT SUBSIDİYALARINING AHAMIYATI**

**Yuldasheva Dildora Kamiljan qizi**

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti

“Iqtisodiyot” kafedrası assistenti

Toshkent kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Orcid:** 0000-0003-4142-1752

**E-mail:** [deeleemkameelovna93@gmail.com](mailto:deeleemkameelovna93@gmail.com)

***Annotatsiya.** Ushbu tadqiqot O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi klasterlarining moliyaviy barqarorligiga davlat subsidiyalarining ta‘sirini 2018-2023 yillardagi ma‘lumotlar asosida statistik tahlil qilishga bag‘ishlangan. OLS regressiya modeli yordamida subsidiyalarga ta‘sir etuvchi asosiy omillar (yoqilg‘i xarajatlari, tuproq unumdorligi, suv ta‘minoti, texnika xarajatlari va asosiy vositalar) tahli qilingan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, yoqilg‘i xarajatlari, tuproq unumdorligi va asosiy vositalar subsidiya hajmiga ijobiy va statistik ahamiyatli ta‘sir ko‘rsatadi, suv ta‘minoti esa salbiy bog‘liqlikni namoyish etadi. Model yuqori tushuntirish qobiliyatiga ega ( $R^2=0.78$ ). Tadqiqot subsidiyalarni differensial taqsimlash va klasterlarning moliyaviy barqarorligini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beradi.*

***Kalit so‘zlar:** qishloq xo‘jaligi klasterlari, davlat subsidiyalari, moliyaviy barqarorlik, OLS regressiya, yoqilg‘i xarajatlari, tuproq unumdorligi.*

***Abstract.** This research paper conducts a statistical analysis of the impact of state subsidies on the financial stability of agricultural clusters in Uzbekistan, based on 2018-2023 data. Using an OLS regression model, the key factors influencing subsidies (fuel costs, soil fertility, water supply, machinery costs, and fixed assets) were analyzed. The results indicate that fuel costs, soil fertility, and fixed assets have a positive and statistically significant impact on subsidy volume, while water supply demonstrates a negative correlation. The model exhibits high explanatory*

*Ingliz tili muharriri: Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi*  
*Musahhih: Vaxabova Marfua Mirkamalovna*  
*Sahifalovchi va dizayner: Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li*

---

## 2- TOPLAM

### 2- MAXSUS SON /2025

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda, **“Management and Economics Scientific Research Journal”** jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pulli asosda chop etiladi.

El. pochta: [journals@timeedu.uz](mailto:journals@timeedu.uz)

Tel.: +998 95 651 90 00

“Management and Economics Scientific Research Journal” jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami:

C-5669639

PNFL: 308906510

---

**Manzilimiz:** Toshkent shahar Yakkasaroy tumani  
Shota Rustaveli ko'chasi, 114